



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

### ABU RAYHON BERUNIYNING MA'NAVIY VA MADANIY MEROsi

**Egamberanova Matluba Jobborgonovna**

*PhD, Urganch Innovatsion University katta o'quvchisi*

*e-mail: megamberanova@inbox.ru*

**Nurmetov Sardor Bahtiyorovich**

*Urganch Innovatsion University stajyor o'quvchisi*

*e-mail: sardornur.7111@gmail.com.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Abu Rayhon Beruniyning boy ilmiy merosi, ma'naviy va madaniy merosi xususida so'z yuritiladi.

**Tayanch so'zlar:** "Qonuni Ma'sudiy", "Saydana", "Hindiston", "Mineralogiya", "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar".

**Annotation:** This article talks about the rich scientific heritage, spiritual and cultural heritage of Abu Rayhan Beruni.

**Key words:** "Kanuni Masudi", "Saydana", "India", "Mineralogy", "Relics from ancient peoples".

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng xalqimizning nihoyatda boy ilmiy-falsafiy, ma'naviy-ma'rifiy merosi, betakror milliy qadriyatları, urf-odatlari va an'analari tiklandi. Bu esa hayotimizning barcha jabhalarida muhim o'zgarishlarga olib kelishi bilan birga jahon sivilizatsiyasining ijobiy tajriba va yutuqlarini har tomonlama chuqur o'rganish, ulardan o'z taraqqiyotimiz yo'lida samarali foydalanish borasida ulkan imkoniyatlar ham yaratdi.

Qomusiy olim Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy X asrning ikkinchi yarmi va XI asrning boshlarida-g'oyat murakkab tarixiy davrda yashab ijod etdi. Beruniy o'zining "Qonuni Ma'sudiy", "Saydana", "Hindiston", "Mineralogiya", "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" kabi asarlarida asarda aks etgan bosh masalalari bilan bir qatorda halollik, to'g'rilik, adolat, ilm olish, oriyat va boshqa insoniy xususiyatlar haqida ibratli fikrlarni bildirgan.

Abu Rayhon Beruniyning dastlabki yirik asari "Al-Osor al-boqiya-qurun al-xoliya" ("Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar") asari hisoblanadi. Bu asar Yevropada "Xronologiya" nomi bilan ham mashhur bo'lib, 390/1000 yili yozilgan va bu vaqtda Beruniy 27 yoshda edi. Bu asar haqida akademik I. Yu. Krachkovskiy quyidagicha fikr bildiradi: "Hozir ham Yaqin sharqning butun ilmiy adabiyotida bu kitobga teng keladigan asar yo'qdir" [1, 245].



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

Asarda insoniyat hayoti haqidagi masalani ilmiy asosda hal etishga harakat qilgan. Jamiyat va kishilar hayotida geografik omilning ahamiyati, uning ijtimoiy hodisalariga ta'sirini ko'rsatib berdi. Musulmonlar va hindlarning urf-odatlaridagi tafovutlar, til masalalari geografik sharoitlar bilan izohlandi.

Abu Rayhon Beruniyning fikricha, falsafaga yo'l borliqni chuqur tushunib yetishga imkon beradigan tabiatshunoslik fanlari orqali o'tadi. Muallif falsafani borliqni mohiyatini anglatadigan fan sifatidagi ta'rifini yoqlaydi. Shuningdek, Abu Ma'shar al-Balxiyning "Tabiat hamma narsadan kuchliroqdir"[2, 5].-degan nuqtai nazariga qo'shilgan. Beruniyning ilmiy, ayniqsa, falsafiy merosi sobiq sho'rolar davrida hukmron bo'lgan mafkuraviy tamoyillar jihatidan ishlangan bo'lib, hozirgi zamonda yangi uslubiy-nazariy yondashuvlar asosida tadbiq etilishga muhtoj. Bu bilan biz beruniyshunoslik sohasida o'sha davrda amalga oshirilgan barcha tadqiqotlar natijalarini inkor etmoqchi emasmiz, balki hozirgi kunda dolzarb bo'lgan va yaqin o'tmishda soxtalashtirilgan hamda haqiqatga to'gri kelmagan uslubiy jihatlarni ko'rib chiqib, yangi tamoyillar va yondashuvlar masalasini kun tartibiga qo'yish kerak, deb o'ylaymiz.

Beruniy tadqiqotlarida qiyosiy uslubni qo'llab, masalani nazariy talqin qiladi. Mutafakkir o'zining "Hindiston" asarida quyidagicha yozadi: "Men bunda hindlar so'zini o'zicha yozaman, ularning yunonlar bilan yaqinliklari borligini bildirish uchun unga yunonlarning shu xildagi so'zlaridan qo'shaman. Chunki, yunon faylasuflari haqiqatni bayon qilishga urinsalar ham, avom xalqqa tegishli tushunchalarda ularning e'tiqodlari va shariatlaridan chetga chiqa olmaydilar. Yunonlarning so'zlari bilan birgalikda boshqalarning so'zlarini bayon qilmayman, faqatgina so'fiylarning yoki nasroniy toifalaridan birontasining so'zini qo'shib bayon qilaman. Chunki, hammalarining xulul va ittihod xususidagi tushunchalari bir-biriga yaqindir"[3, 91].

Xulosa qiladigan bo'lsak, Beruniy o'z oldiga qiyosiy uslubning nazariy ta'rifini berishni maqsad qilib qo'yagan bo'lsa ham, uning mazmuni va asosiy belgilarini ochib bergen va go'yoki o'zining ilmiy merosini o'rganish uchun ham qanday tadqiqot usullarini qo'llash kerakligini aniqlab bergen. Beruniy ma'naviy merosining nafaqat umumiyligi, balki chuqur o'ziga xos va betakror jihatlarga egaligi, uni tadqiq etishda umumiyligi tadqiqot usullaridan tashqari o'sha jihatlarga mos maxsus usullarni ham qo'llash zarurligini nazarda tutish kerak. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosi, aniq fanlar bo'yicha ko'targan muammolari o'z davrida olamning umumiyligi manzarasini yaratishda, ya'ni falsafiy dunyoqarash shakllanishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Beruniy ma'naviy merosini har tomonlama va chuqur targ'ib etish yangi avlod ongi-shuuriga milliy iftixor



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

tuyg'usining kirib borishi va ilm-ma'rifikatga nisbatan sog'lom munosabatni kamol topishiga xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Крачковский И. Ю. Избранные сочинения. Том IV. М: - 472 с.
2. Каримов И., Валиева С., Туленова К. Ижтимоий фалсафа (услубий кўлланма). -Т., 2008.
3. Абу Райхон Беруний. Хиндистон//Танланган асарлар. II жилд. -Т.: "Фан", 1963. Б.91.

### ISHTIROK ETUVCHI HAQIDA MA'LUMOTNOMA

Ma'lumotlar	Avtor 1	Avtor 2	Avtor 3
Muallifning F.I.O. (to'liq)			
Status (ilmiy daraja, ilmiy unvon, lavozim; doktorant, magistrant, talaba)			
Ish (o'qish) joyining nomi			
Bog'lanish telefoni			
e-mail			
Maqola nomi			
Yo'naliш nomi			
Sahifalar soni			
To'plamning elektron variantini jo'natish uchun e-mail yoki telegram nomeri			